

IV bob. Yer va koinot



Bizning uyimiz – Yer sayyorasi



Yer – Quyosh atrofida aylanadigan sakkizta sayyoradan biri. Yer Quyoshdan uchinchi sayyora. Faqat Yerdagina hayot mavjud.



Yer juda katta va yumaloq. Kosmonavtlarning aytishicha, Yer eng go'zal sayyora. Kosmosdan u ulkan ko'k billur sharga o'xshab ko'rinadi.


Yer yuzasini va unda bo'ladigan tabiat hodisalarini o'rganuvchi butun boshli **geografiya** fani mavjud.

Agar kosmosdan olingan Yerning fotosuratiga diqqat bilan qaralsa, unda turli xil ranglarni ko'rish mumkin: ko'k, moviy, oq, yashil va jigarrang. Bunda ko'k rang qolganlariga qaraganda ancha ko'p. Moviy rang suv yuzasini, jigarrang va yashil ranglar esa quruqlikni bildiradi. Oq rang muzliklar va qorlarni ifodalaydi.



Yerning katta qismi suv bilan qoplangan. Bular, asosan, ulkan **okeanlar**, shuningdek, dengizlar, ko'llar va daryolardir. Quruqlik **materik** va **orollardan** iborat.

Yerdagi suv va quruqlikning o'zaro nisbati



Yerda qancha quruqlik va suv borligini ko'rsatuvchi diagrammaga qarang.

1. Suv maydoni quruqlik maydonidan taxminan necha marta katta?
2. Orol, soy, ko'l, cho'l, yarimorol, dengiz, materik, tog'lar, daryo va okeanlardan qaysilari Yerning quruqlik qismiga, qaysilari esa suv qismiga tegishli?



Globus – bu Yer sayyorasining kichraytirilgan modeli. U Yerning har tomondan qanday ko'rinishini namoyish etish uchun kerak. Biz globusda turli mamlakatlar, okeanlar, tog'lar va boshqa geografik obyektlarni ko'rishimiz mumkin.

Globusdagi ko'k rang chuqur joylarni bildiradi. U qanchalik chuqur bo'lsa, ko'k rang shunchalik quyuk bo'ladi. Tepalik va do'ngliklar sariq rangda, yashil tekisliklar va o'rmonlar esa yashil rangda bo'ladi. Tog'lar jigarrangda bo'lib, u qanchalik baland bo'lsa, rangi shunchalik quyuk bo'ladi.

**Tabiiy****Siyosiy**

Globuslar va xaritalar turlicha bo'ladi. Bu biz nimani o'rganayotganimizga bog'liq.

Tabiiy globus bizga Yer yuzasining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rish imkonini bersa, siyosiy globus esa davlatlarning chegaralarini va shaharlarning joylashish o'rnini ko'rsatadi. U Yer davlatlarga qanday bo'linganligi va ular qanday nomlanishini ko'rsatadi.



Ikkala globusga qarang.

1. Qaysi globus tabiiy, qaysi biri siyosiy?
2. O'zbekiston va uning poytaxti Toshkentni topish uchun qaysi globus kerak bo'ladi?
3. Okeandagi eng chuqur joyni topish uchun qaysi globus kerak bo'ladi?



Globusdan tashqari, Yerdagi hamma narsani kichraytirilgan shaklda ko'rish mumkin bo'lgan xaritalar mavjud. Xaritalar butun Yer yuzasini yoki uning faqat bir qismini, masalan, bitta davlatni ko'rsatishi mumkin.



Yerni o'rganish maroqli va qiziqarli. Geograflar atrofimizdagi olamni o'rganuvchi va izlanuvchi olimlardir. Ular Yer sayyorasi qanday tuzilganligi va unda nimalar borligi bilan qiziqadilar.

Geograflar Yerning turli qismlari qanday ko'rinishga ega ekanini ko'rish mumkin bo'lgan xaritalar yaratadilar. Ular xaritalarni yaratish uchun turli davlatlarga sayohat qiladilar va joylarni o'rganib, ularning chizmasini tasvirlaydilar. Olimlar yaratgan xaritalar bizlarga o'zimizni qiziqtirgan joylar qayerda joylashganini topishimizda yordam beradi.



Rasmda ko'rsatilgan xaritani o'rganing. Yozuvlarni o'qing.

1. Oldingizda qaysi davlat xaritasi bor? Buni qanday bildingiz?
2. Bu tabiiy xaritami yoki siyosiymi?